Baymuratova Saltanat Jaqsimbaevna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti; saltanat_baymuratova@gmail.com)

PODKAST TA'LIM RESURSI SHAKLLANISH TARIXI VA MOHIYATI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada podkast tushunchasi, uning kelib chiqish tarixi, etimologiyasi, shu bilan birga podkastlarning omma orasida keng tarqalishi va ularning turfa xilligi keng muhokama etilgan. Shu sababtan mazkur maqola obiekti sifatida podkast tushunchasi tanlab olingan va maqolani yoritishda tarixiy-tahlil uslubi, tarixiy-etimologik uslub, statistik analiz uslublari keng foydalanilgan. Maqola olimlar va izlanuvchilar tomonidan keltirilgan keltirilgan ma'lumotlar ila boyilgan.*

Kalit so'zlar: *podkast, texnologiya, ovozli va video fayl, ta'lim, axborot-kommunikatsiya tizimi, internet.*

Баймуратова Салтанат Жаксимбаевна (базовый докторант 1-го курса Каракалпакского государственного университета имени Бердаха; saltanat_baymuratova@gmail.com)

ИСТОРИЯ И СУЩНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО РЕСУРСА ПОДКАСТ

Аннотация. *В данной научной статье подробно рассматривается понятие подкаста, история его возникновения, этимология, а также широкое распространение подкастов среди об-щественности и их разнообразие. В связи с этим в качестве объекта исследования данной статьи было выбрано понятие подкаста, и при ее написании широко применялись историко-аналитический, историко-этимологический методы и методы статистического анализа. Статья обогащена данными, представленными учеными и исследователями.*

Ключевые слова: *подкаст, технология, аудио и видео файл, образование, информационно-коммуникационная система, интернет.*

Baymuratova Saltanat Jaksimbaevna (basic doctoral student of the 1st year of Berdakh Karakalpak State University; saltanat_baymuratova@gmail.com)

HISTORY AND ESSENCE OF THE FORMATION OF PODCAST EDUCATIONAL RESOURCE

Annotation. *This scientific article comprehensively examines the concept of podcasts, their historical origins, etymology, as well as their widespread popularity and diverse varieties among the public. The concept of podcast was chosen as the subject of this article, and historical-analytical, historical-etymological, and statistical analysis methods were extensively utilized in its exposition. The article is enriched with information provided by scholars and researchers.*

Keywords: *podcast, technology, audio and video file, education, information and communication system, internet.*

Kirish. Ta'lim sifati hozirgi paytda ta'lim muassasalarida tobora sezilarli darajada oshmoqda va o'z navbatida bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga qo'yiladigan talablarning kengayishiga o'z hissiasini qo'shmoqda. Bu shu bilan birga, hozirgi zamon ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, Internet resurslarining va yana yangi avlod ommaviy axborot vositalarining joriy etilishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. O'quvchilar o'z navbatida turli xil manbalardan ma'lumot olish, individual bilish ehtiyojlarini qondirish maqsadida mazkur texnologiyalardan foydalanib kelmoqda va bu holat o'quvchilarda ta'limga nisbatan ichki motivatsiyanining oshishiga zamin yaratmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va yana kompyuter texnologiyasi hozirgi zamon barcha oily ta'lim muassasalarida mavjud bo'lib, ular an'anaviy ta'lim usullarini elektron ta'lim bilan uzviy bog'lab darslarning sifatining oshishiga to'g'ridan-to'g'ri xissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda podkastlar aloqa vositasi sifatida yoshlar orasida keng qo'llanilmoqda. Ushbu formatning shakllanishi va ta'limiy resurs sifatida rivojlanishi XXI asrning boshlariga to'g'ri keladi. Podkastlarning ommalashuvi, asosan, ovozli kontentni eshitish imkonini beruvchi ixcham shaxsiy qurilmalarning arzon va keng tarqalgan holga kelishi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu bilan birga, o'sha davrda mavjud bo'lgan veb-texnologiyalar ommaviy audio fayllarga keng omma tomonidan kirishni ta'minlay olgan. Vizual komponent esa keyingi bosqichlarda rivojlanib, podkastlarning multimediaviy shaklga o'tishiga zamin yaratgan. "Podkast" atamasi ingliz tilidagi "podcasting" so'zidan olingan bo'lib, bu termin Apple kompaniyasining iPod portativ media pleyerlarining keng tarqalgan davrida ommalashgan. "Podcasting" so'zi "iPod" va "broadcasting" (inglizcha – radio-televideniya eshittirish; translatsiya) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan va internetda e'lon qilinadigan maxsus audio- va video ko'rsatuvlar formatini anglatadi [1;586-b.]. Ushbu audio va videoko'rsatuvlaridagi ishtirokchilar "audio-bloglar" yoki "ovozli veb-jurnallar" deb atalgan yangi formatdagi texnologiyani tez orada ishlab

chiqish, uni keng ommaga targ'in qilish va undan foydalanish usullarini o'rganishadi. Dastlabki bosqichlarda podkastlarni yaratish va tarqatishga bo'lgan qiziqish ancha past darajada bo'lgan, chunki keng jamoatchilik na bu atamani, na uning mazmun-mohiyatini yetarli darajada bilgan.

Podkast atamasi 2004-yil boshida jurnalist Ben Hammersley tomonidan ilk bor muomalaga kiritilgan bo'lib, u ushbu so'zni Buyuk Britaniyaning "The Guardian" gazetasida e'lon qilingan maqolasida ishlatgan. Hammersley bu atama orqali aynan iPod portativ media pleyerlarida audioblogларni mobil tarzda tinglash amaliyotini ifodalagan [2]. Dastlab, podkast atamasining ommabopligi cheklangan edi, masalan, 2004-yil sentyabr oyida bu so'z Google qidiruv tizimida atigi 24 marta izlangan. Biroq 2005-yilga kelib, yangi Oksford Amerika lug'ati tomonidan "podkast" atamasi "yilning so'zi" sifatida tan olingan.

2007-yildan boshlab esa podkasting texnologiyasi "past bosqichli" texnologiya sifatida e'tirof etila boshlandi. Bu atama ishonchlilik, qulaylik, oddiylik hamda iqtisodiy samaradorlik (ya'ni vaqt va resurslarni tejash) kabi jihatlar bilan tavsiflanadi. Vaqt o'tishi bilan podkastlar texnologik va funksional jihatdan takomillashdi hamda inson faoliyatining turli sohalariga chuqur kirib bordi. Dastlabki bosqichda pod-kastlarning asosiy vazifasi ko'ngilochar va axborot beruvchi kontentni yetkazishdan iborat bo'lgan [3;117-b.].

Podkastlardan ta'limiy maqsadlarda foydalanish 2004-yildan boshlab amaliyotga joriy etila boshlagan. Dastlab, 2004-yil oktabr oyida AQSHdagi nufuzli Dyuk universiteti podkastlar yaratish texnologiyasi nazariyasini fan sifatida o'quv jarayoniga kiritdi. Bu tashabbus talaba va professor-o'qituvchilarning portativ musiqa qurilmalaridan faol foydalanishi bilan izohlanadi. Universitet ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlash maqsadida talabalarga iPod qurilmalarini taqdim etdi va o'qituvchilarni tegishli dasturiy ta'minot bilan ishlash bo'yicha rag'batlantirdi [4].

Buyuk Britaniyada esa 2006-yilga kelib podkastlardan foydalanish bo'yicha ilk ilmiy tashabbuslar paydo bo'ldi. Xususan, Bredford universiteti professori doktor Bill Ashraf o'zining ma'ruzalarini podkast shaklida taqdim etgan holda keng jamoatchilik e'tiborini qozondi (BBC, 2006). Shu yili iyun oyida "Norasmiy mobil podkastingni ta'limga moslashtirish" (IMPALA) nomli loyiha boshlangan bo'lib, u Buyuk Britaniyada podkastlardan pedagogik maqsadlarda foydalanish bo'yicha ilk moliyalashtirilgan ilmiy izlanish sifatida e'tirof etiladi.

Podkastlardan ta'lim texnologiyasi sifatida foydalanish bo'yicha qiziqish 2007-yilda sezilarli darajada ortdi. Xususan, o'qitish texnologiyalari assotsiatsiyasining 2007-yil sentabr oyida o'tkazilgan yillik konferensiyasida podkastingga bag'ishlangan 12 ta maxsus ma'ruza taqdim etildi. Shuningdek, Web 2.0 texnologiyalari doirasida podkastlar alohida mavzu sifatida ko'plab ma'ruzalarda tilga olindi. Shu tariqa, 2007-yilga kelib, podkastlardan foydalanish ommalashib, u o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan biri sifatida keng o'rganila boshlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada podkastlarning kelib chiqish tarixini o'rganish, uning keng ommaga targ'ib qilinishi va turli xil podcast turlarini va ular haqida yetarlicha ma'lumot yig'ish uchun tarixiy tahlil metodi, tarixiy-etimologik metod, statislik analiz metodlar keng turda foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Podkastlarning keng ommalashuvi bilan birga, tadqiqotchilar ushbu vositaning ta'limiy salohiyatiga bo'lgan qiziqishni oshira boshladilar. Ilmiy tadqiqotlar podkastlarning foydalanishdagi soddaligi, o'quvchilar uchun qulay va jozibadorligi, shuningdek, mobil xarakteri bilan ajralib turishini ta'kidlaydi. Podkastlarni yaratish va ularni ommaga yetkazish texnik va iqtisodiy jihatdan uncha murakkab bo'lmagani, shuningdek, internet orqali bepul foydalanish imkoniyatining mavjudligi ushbu texnologiyaning ta'lim sohasida tez joriy etilishiga zamin yaratdi. Bundan tashqari, ta'lim muassasalari podkastlar orqali o'zlarini innovatsion va texnologik jihatdan ilg'or subyektlar sifatida namoyon etish imkoniga ega bo'ldilar [5;31–32-b.].

Podkastlardan ingliz tilini o'qitish jarayonida foydalanishga oid dastlabki amaliy tajribalardan biri Yaponiyada kuzatilgan. Osakada joylashgan xususiy ayollar universiteti ushbu borada ilg'or qadam tashlagan ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Mazkur universitetda talabalar ingliz tilini o'rganishga mo'ljallangan o'quv audio materiallari bilan ta'minlangan iPod qurilmalarini qo'llashgan. Ushbu tajriba podcastlardan xorijiy tillarni o'qitishda samarali o'quv vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlarini namoyon etdi [6;67-b.].

iPod – podkastlarni yuklab olish va ijro etish uchun mo'ljallangan birinchi portativ qurilma sifatida tarixga kirgan. Apple kompaniyasining iTunesU platformasi esa ta'lim podkastlarini tarqatishning asosiy kanali sifatida ajralib turadi. 2007-yilda iTunesU Amerika va Kanada universitetlari tomonidan o'z kurslari uchun o'quv materiallarini tarqatish maqsadida ishga tushirilgan. Ushbu materiallar dastlab faqatgina ushbu universitetlar talabalari uchun mavjud edi, ammo Apple kompaniyasi tez orada boshqa sohalardagi universitetlarni ham iTunesU platformasiga qo'shilishga taklif qildi. Hozirgi kunda ko'plab nufuzli univer-

sitetlar, jumladan, Garvard, Yel, Massachusets Texnologiya Instituti, Stenford, Oksford, Kembrij va Sorbonna kabi ta'lim muassasalari o'z kurs materiallarini iTunesU orqali bepul taqdim etmoqda. iTunesU hozirda "Beyond Campus" nomi bilan yangi bo'limga ega bo'lib, unda kollejlar va muzeylar kabi boshqa ta'lim muassasalarining resurslari ham mavjud [5;35-b.].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, podkastlar va ularning istiqboli, ayniqsa, ta'lim resursi sifatida takomillashishi bir nechta bosqichlarni o'z ichiga olgan alohida butun davr mobainida amalga oshiriladi. Xorijiy oily ta'lim muassasalarida mazkur podkastlar birinchilardan bo'lib qo'llanilgan, ammo hozirgi kunda nafaqat chet el ta'lim muassasalari, balki mamlakatimizda ham chet tillarni o'qitish jarayonida ulardan foydalanib kelmoqdamiz va podkastlarning imkoniyatlarini keng qamrovda o'rganib chiqish tom ma'noda zaruriyatga aylanmoqda. Masalan, K.A Mironova [7;318-b.] va N.G.Protazanova [8;96-b.] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar podkastlarning ta'limda qo'llanishi borasidagi ilmiy izlanishlarni yoritadi.

E.Barsky va K.Lindstrom podkastni Web 2.0 axborot-kommunikatsiya tizimining vositasi sifatida ta'riflab, uning dinamik, hamkorlikda va interaktiv tarzda foydalanilishi mumkinligini ta'kidlaydilar [9].

Podkastlarga ta'rif berishda tadqiqotchilar turli xil nazariyalardan foydalanadi, masalan, Oksford ingliz tili lug'atining uchinchi nashrida podkastlarni quyidagicha ta'riflaydi:

Podkast – bu, odatda, raqamli keng tarqalgan yozuv bo'lib, u internet tarmog'ida kompyuter yoki shaxsiy audiopleerga yuklash uchun mavjud.

Podkastlar –"Ovozli yoki video fayl bo'lib, u, asosan, tinglash yoki ko'rish uchun bepul tarqatiladi" deya ta'rif beradi E.Y.Malushko. Ammo biz mazkur tadqiqotchining fikriga to'liq qarshimiz, chunki bu tushuncha mujmal va barcha podkastlar ommaviy tarzda ta'minotchilar tomonidan har doim ham bepul tarqatilavermaydi. Texnologik tomoniga ko'proq e'tibor bergan S.Makintayr esa, podkastlarni kross-platformalilikni, ya'ni, turli qurilmalarda – kompyuterlar, smartfonlar va MP3-pleyerlarda yuklab olish va ijro etish imkoniyatini beruvchi sifatida ta'riflaydi. Ularning tarqatilishi esa 2 xil formatda amalga oshirilishi mumkin, ya'ni, Internet foydalanuvchisining obunasi orqali global tarmoqda ochiq holatda berilishi yoki ma'lum bir guruh uchun cheklangan resurslar orqali yetkazilishi mumkin.

Mashhur podkast yaratuvchisi va xalqaro ma'ruzachi, falsafa doktori Kolin Grey podkastlarning mobilligi haqida to'xtalib, ularni "muayyan fan yoki mavzuga bag'ishlangan og'zaki nutq xabarlari, audioepizodlar to'plami, ularga obuna bo'lish va telefoningizdagi ilova orqali istalgan vaqt va joyda tinglash imkoniyati bilan" ta'riflaydi. Greyning ta'kidlashicha, podkastlarning yaratilishi aslida auditoriyaning fon mazmuniga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan. Ya'ni, kundalik faoliyatni bajarish vaqtida o'quvchilarga ko'ngil ochuvchi va ilhomlantiruvchi ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyati podkastlarning yaratilishiga asos bo'lgan.

Shuningdek, E.N.Solovova ham podkastlar haqida alohida ta'rif beradi, unga ko'ra, podkastlar muayyan vaqt davomiyligiga ega bo'ladi va har qanday janrdagi audio matnlar bo'lishi mumkin, ba'zi hollarda esa video material bilan birga kelishi yoki audio blog, ko'rsatuv, internetda nashrlar ko'rinishida ham e'lon qilinishi mumkin va ular muntazam yangilanib turadigan fayl seriyalaridan iborat.

Berilgan ta'riflar podkastlarning xilma-xilligi va raqamli mediaresurs sifatidagi o'ziga xosligini ko'rsatadi. Ta'riflar, asosan, podkastning raqamli qurilmalar bilan o'zaro aloqada bo'lishini va undan foydalanishning qulayligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, podkastning mobilligi, mavjudligi va foydalanish qulayligi kabi xususiyatlari dolzarb bo'lib qolmoqda. Podkast formati uning turli mazmun bilan to'ldirilishiga imkon yaratadi, bu esa kundalik hayotning har tomonlama ko'rinishini aks ettiradi – maishiy vaziyatlardan tortib, zamonaviy ijtimoiy, madaniy va global masalalarni muhokama qilishgacha. Podkastning bu xususiyati uni chet tilini o'rganishda ham samarali resursga aylantiradi, chunki u turli mavzularni qamrab oladi va har qanday darajadagi o'quvchilarga mos keladi. Podkastlarning bu imkoniyatlari o'quvchilarda nutqiy va grammatik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'rif mualliflarining podkastlar haqidagi ta'riflariga to'xtaladigan bo'lsak, ularga ko'ra, podkastlar turli matn va nutq janrlari bilan tuzishning o'ziga xos xususiyatlariga ega va bu esa o'quvchilarga ko'plab topshiriq va mashqlarni namoyish etish, hamda ulardan foydalanish imkonini beradi. Biroq, ko'plab mualliflar podkastlarni ta'lim resursi sifatida bevosita ta'riflamaydilar. Shu sababli biz, mualliflar tomonidan bayon etilgan xususiyatlarni birlashtirib, podkastning ishchi ta'rifini shakllantirish zaruriyatini ko'rayapmiz. Podkast – bu raqamli audio va videofayl va ular barcha zamonaviy audio yoki video qurilmalar va gadjetlarda ijro etiladi, u, odatda, har xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va ma'lum bir predmet yoki mavzuga bag'ishlangan xabarlar to'plami deya e'tirof etilishi zarur. Ularning davomiyligi xronologik jihatdan o'zgaruvchan bo'ladi. Hozirgi vaqtda internetda esa keng miqyosdagi podkastlar assortimenti mavjud va

podkast har qanday odam xoh oddiy o‘qituvchi, xoh programmist tomonidan ham yaratilishi mumkin va o‘z navbatida podkastlarning xalqaro miqyosda ommalashishiga sababchi bo‘ladi.

Ammo, podkastlarning ommalashishiga bir nechta to‘sqinliklar mavjud, masalan, geografik jihatdan uzoqda joylashgan fuqarolar yoki moddiy sharoiti past bo‘lgan qatlamlar bu xilma-xil podkastlarga kira olishmaydi va ulardan zarur maqsadlarda foydalanishdan mosuvo bo‘lishadi. Ularning davomiyligi ham o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin, minimum bir daqiqadan to uch soatgacha, parchalardan to batafsil suhbatgacha bo‘lishi mumkin. Ularning ishlab chiqarilishi ham turli xildir, ular har kuni ham, haftada bir marta ham, yoki oyda bir marta ham chiqarilaveradi. Bir yoki ikki kishi bir vaqtning o‘zida boshlovchilik qila oladi va yana taklif etilgan mutaxassislar ham keng qamrovli suhbatni birgalikda amalga oshira oladilar.

Podkastlarning ta’limdagi asosiy afzalligi ularning ko‘chma va mobil xususiyatida, ya’ni o‘quvchilar o‘quv materiallarini istalgan vaqtda va joyda tinglash imkoniyatida yotadi. Bu, o‘z navbatida, keng texnik bilimlarni talab qilmaydi va mobil qurilmalarda, masalan, mp3-pleerlar, smartfonlar, planshetlar yoki kompyuterlarda foydalanish mumkin. O‘quvchilar mobil qurilmalarga yuklab olingan materiallarni o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqtda va joyda tinglashlari mumkin. Bu ularga, hatto yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa ham, eshitish va ko‘rish idrokini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Ba’zi podkastlar matnlar bilan birga taqdim etiladi, bu esa o‘quvchilarga nafaqat audioyozuvni tinglash, balki matnni o‘qish imkonini beradi. Buning natijasida, o‘quvchilar mustaqil ravishda maxsus mavzular bo‘yicha podkastlarni qidirib topishlari va ularni sinfdoshlari bilan ulashishlari mumkin. Shunday qilib, podkastlar mobil ta’limning samarali vositasiga aylangan va o‘quvchilarga o‘qish, tinglash va o‘rganish jarayonlarida katta yordam beradi [5;138-b.].

Xulosa. Ta’kidlash joizki, barcha podkastlar ham didaktik jihatdan puxta ishlab chiqilmagan va chet tilini o‘rganish uchun mos kelmaydi. Bu maqsadlar uchun maxsus o‘quv podkastlari mavjud. Ular lingvistik va mazmuniy jihatdan murakkablikning ma’lum darajasiga muvofiq puxta tanlab olinadi. Bundan tashqari, alohida shaxslar, jumladan o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan boshqa didaktik ishlab chiqilgan podkastlar ham mavjud, ular o‘quv materiallarini tanlash mezonlariga mos keladi. Umuman olganda, podkastlar ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida ta’lim resursi sifatida foydalanish imkonini beradigan ma’lum xususiyatlarga ega. Bu ushbu jihatni tarixiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish bilan tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Roberts M. Adventures in podcasting. Political Science and Politics. Vol. 41, №3, p. 585–593.

(2). Hammersley B. Audible revolution, The Guardian Unlimited. URL: https://www.theguardian.com/media/2004/feb/12/broadcasting.digitalmedia

(3). Ramsden A. Podcasting as a social network tool: is it a student reality? Programme and abstracts of ALT-C: Nottingham, 4–6, September, c. 117–118.

(4). Belanger Y. Duke University iPod First Year Experience Final Evaluation Report. URL: www.cit.duke.edu/pdf/ipod_initiative_04_05.pdf

(5). Rosell-Aguilar F. Podcasting as a language teaching and learning tool. In K.Borthwick, E.Corradini, & A. Dickens (Eds), 10 years of the LLAS e-learning symposium: Case studies in good practice. Dublin: Research publishing.net. doi:10.14705/rpnet.2015.000265, c. 31–39.

(6). Mccarthy S. Spoken Internet to go: Popularization through podcasting. JALTCALL. 2019. 1(2). C. http://www.waoe.org/president/podcasting article.html.

(7). Миронова К.А. Исползование подкастинга в протсессе обучения неметскому и английскому язикам // Студентская наука и XXI век. 2017, № 14, с. 317–319. URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=30542903

(8). Протазанова Н.Г. Исползование сотсиалного сервиса подкастов в обучении иностранним язикам // Ярославский педагогический вестник. 2011, t. 2, № 3, с. 95–97. URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id = 18225796

(9). Barsky E., Lindstrom K. Podcasting the sciences: A practical overview. Issues in Science and Technology Librarianship. 2019, URL: http://www.istl.org/08- fall/article7.html

Allabergenova Dilafruz Kadambekovna (mustaqil tadqiqotchi; ORCID-0009-0001-7027-167X)

TALABALARDA “YASHIL PEDAGOGIKA”NING ZAMONAVIY TENDENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Hozirgi kunda zamonaviy pedagogikaning bir qancha rivojlangan turlari paydo bo‘lmoqdaki, bunda ta’lim va tarbiyaning uzviy ahamiyatlarini kengroq yoritilishiga ahamiyat qaratmog‘imiz lozim. Ushbu maqolada yashil pedagogikani paydo bo‘lishi va uni ta’lim-tizimi, sifatini oshirishdagi o‘rni haqida so‘z boradi. “Yashil pedagogika” yangi fan bo‘lib hali O‘zbekistonda o‘rganilmagan.” Yashil pedagogika” ta’limning muhim qismi bo‘lib u talabalarga ko‘nikma va bilimlarni o‘rgatadi.*